

Naimova Sh.G‘.

Axborot-texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

MINTAQADA ZIYORAT TURIZMINI DIVERSIFIKATSİYA QILISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANİZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot mintaqada ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish va uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Ziyorat turizmi nafaqat diniy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoq, balki mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. Shu sababli, uning diversifikatsiyasi orqali xizmatlar sektori kengaytirilishi, mavsumiy cheklovlar kamaytirilishi va turistik oqimni ko‘paytirish imkoniyatlari yaratilishi mumkin.

Tadqiqotda ziyorat turizmini sog‘lomlashtirish, gastronomik, ekoturizm va madaniy turizm bilan uyg‘unlashtirish, transport va mehmonxona infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, marketing strategiyalarini kuchaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarini jalb qilish kabi diversifikatsiya mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilingan.

Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida ziyorat turizmini rivojlantirishning samarali strategiyalari ko‘rib chiqilib, Qashqadaryo viloyati misolida uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasi baholangan. Natijalar asosida mintaqaviy turizm siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan..

Kalit so‘zlar: ziyorat turizmi, diversifikatsiya, turizm infratuzilmasi, mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiyalar, turizmni rivojlantirish, innovatsion xizmatlar, raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, ekoturizm, sog‘lomlashtirish turizmi, gastronomik turizm, marketing strategiyalari, transport va mehmonxona infratuzilmasi.

Kirish. Mamlakatimizda turizm industriyasini zamonaviy asoslarda barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish va uning rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish sohasida innovatsion infratuzilmalarni barpo etish, sohaga investitsiyalar jalb qilish, xizmatlar spektrini kengaytirish hamda turistik salohiyatdan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ziyorat turizmini rivojlantirishda an‘anaviy usul va vositalar muqaddas joylarni jozibali ziyorat yo‘nalishlariga aylantirish, turistik xizmatlarning sifati va salohiyatini oshirish, halol turizm konsepsiyasini rivojlantirish kabi jihatlarga asoslanadi. Biroq, turistik faoliyatni zamonaviy yondashuvlar asosida diversifikatsiya qilish zarurati ortib bormoqda. Xususan, ziyorat turizmini ekologik turizm, sog‘lomlashtirish turizmi, gastronomik turizm va madaniy turizm bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion xizmat turlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida ziyorat turizmini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, ziyorat turizmi faoliyatining innovatsion va investitsion faolligini oshirish, klaster tizimlarini joriy etish orqali mintaqaviy turizmni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish orqali xizmatlar sohasi va hududiy iqtisodiyotni samarali rivojlantirish mumkin. Shu bois, mamlakatimizda ziyorat turizmini yangi zamonaviy mexanizmlar asosida takomillashtirish va diversifikatsiya qilish

iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda turizm sohasining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish zarurati va uni rivojlantirishning dolzarbligi hozirgi zamon talablariga javob berishi hamda global iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish zarurati bilan izohlanadi.

Ziyorat turizmi iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samarali boshqarilishi quyidagi jihatlar bilan asoslanadi:

- ❖ **ziyorat turizmi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida kelajakda yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi lozimligi** – turizm sohasi mintaqaviy va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, diversifikatsiya orqali xizmatlar turlarining kengayishi turistik faoliyatning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi;
- ❖ **ziyorat turizmi rivojlanishi natijasida yangi ish o'rirlari yaratilishi-xizmat ko'rsatish, infratuzilma, tadbirkorlik va transport tizimining rivojlanishi aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi;**
- ❖ **jahon miqyosida ziyorat turizmining jadal rivojlanishi**-global miqyosda turizm sohasi yil sayin o'sib bormoqda va O'zbekistonning boy madaniy merosi bu jarayonga faol qo'shilish uchun qulay imkoniyat yaratadi;
- ❖ **ziyorat turizmiga xalqaro talabning ortib borishi-hozirgi kunda musulmon sayyoohlar oqimi oshib borayotgani hisobga olinsa, halol turizm konsepsiyasi va innovatsion xizmatlar joriy etish orqali xizmatlar eksportini kengaytirish mumkin;**
- ❖ **aholi daromadlari oshishi va turizm xizmatlariga talabning ortishi-turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish orqali ichki va xalqaro sayyoohlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar taklif etish imkoniyati paydo bo'ladi;**

Ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish, shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirish, davlat-xususiy sheriklik asosida turizmni rivojlantirish, innovatsion xizmatlarni joriy etish kabi zamonaivy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Jahon tajribasiga asoslangan holda, ziyorat turizmini klaster modeli asosida tashkil etish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar turlarini ko'paytirish kabi mexanizmlar orqali sohaning barqaror o'sishiga erishish mumkin.

Turistik faoliyatni innovatsion va investitsion jihatdan faollashtirish, pandemiyadan keyingi davrda uning rivojlanish bosqichini yangi darajaga olib chiqish O'zbekiston sharoitida ziyorat turizmini rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

1-jadval.

Turistlar tashrif buyuradigan ziyorat obyektlari haqida ma'lumot¹.

T/R	Tuman va shaharlar	Ziyoratgoh nomi	Sig'imi (kishi)
1	Kitob tumani	Hazrati Bashir ziyoratgohi	1500
2	Kitob tumani	Xo'ja Imkanagiy ziyoratgohi	1000
3	Kitob tumani	Mavlono Darvesh Muxammad Vaxshuvoriy ziyoratgohi	700
4	Kitob tumani	Xo'ja Ne'matulloh maqbarasi	500

¹ Muallif ishlanmasi

5	Muborak tumani	Muborak al-Mervaziy ziyoratgohi	1000
6	Qamashi tumani	Langar ota ziyoratgohi	500
7	Kasbi tumani	Murodbaxsh ota ziyoratgohi	500
8	Koson tumani	Qusam ota ziyoratgohi	500
9	Qarshi tumani	Imom Muin Nasafiy majmuasi	500
10	Qarshi shahar	Abu Ubayda ibnal-Jarrox ziyoratgohi	300
11	G'uzor tumani	Mirijanda ota ziyoratgohi	1000
12	Shahrisabz shahar	Oq Saroy majmuasi	1000
13	Shahrisabz shahar	Chubin madrasasi	500

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan va ular bo'yicha qizg'in ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga Qashqadaryo viloyatining xususiyatlaridan, mavjud turistik resurslaridan kelib chiqqan holda yondoshilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi obyektlaridan orasida eng ko'p tashrif buyuriladigan joy "Oqsaroy" majmuasi, "Ko'kgumbaz" masjidi, "Amir Temur kichik g'ori", "Hazrati Bashir" maqbarasi, "Hazrati Sulton" maqbarasi, "Abu Mu'in Nasafiy" va "Abu Ubayda ibn al-Jarrah" yodgorlik majmualari hisoblanadi. Ushbu ziyorat obyektlariga 2023-yilda 1398 nafar ziyoratchi tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 2 baravarga qisqargan. Buning asosiy sababi "COVID-19" koronavirus pandemiyasi va ziyorat turizmi infratuzilmasining kam rivojlanganligidir.

Bizning fikrimizcha, ziyorat turizmini diversifikasiya qilish orqali Qashqadaryo viloyati nafaqat ichki va tashqi ziyoratchilar uchun yanada jozibador bo'ladi, balki viloyat iqtisodiyotiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga:

birinchidan, viloyat infratuzilmasining yaxshilanishiga olib keladi (yo'llar, transport-kommunikatsiya, suv ta'minoti, mehmonxonalar va mehmonlarni joylashtirish obyektlari).

ikinchidan, Qashqadaryo viloyati tumanlarida qo'shimcha ish joylarini yaratish orqali aholining bandligi oshadi va ularning daromadlari ortadi, natijada viloyat aholisi turmush darajasi yaxshilanadi.

uchinchidan, xorijiy mamlakatlardan tashrif buyuruvchilarining yanada ko'payishiga olib keladi va ayrim ziyorat obyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish imkonini oshiradi.

1-jadvalda mintaqaning asosan xorijiy ziyoratchilar tashrif buyuradigan salohiyatli ziyorat obyektlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Ziyorat turizmi uchun tashrif buyuruvchilar 3 toifada, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ziyoratchilari, MDH mamlakatlari ziyoratchilari va uzoq xorij davlatlaridan tashrif buyuruvchi ziyoratchilar joylashish holati tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2019-yilda 105221 nafar ziyoratchilar tashrif buyurishgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi ziyoratchilari 54,6 foizni, MDH mamlakatlari ziyoratchilari 12,2 foizni va uzoq xorij davlatlari ziyoratchilari 33,2 foizni tashkil etadi. Shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida mutanosib ravishda 53,2, 8,4 va 38,4 foizni tashkil etib, jami tashrif buyurgan ziyoratchilarning Qashqadaryo viloyatidagi ulushi 2,5 foizga to'g'ri keladi. Shuni qayd

etish lozimki O‘zbekiston Respublikasi ziyyarat turizmida Qashqadaryo viloyatining ulushi 2019-yildagi 2,5 % dan 2023-yilda 4,2 % ga oshgan. (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyatiga ziyyarat maqsadida tashrif buyuruvchilarining joylashish holati².

T/R	Ko‘rsatkichla r	Yillar					2023-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarishi (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha tashrif buyurgan ziyyoratchilar:							
1.	O‘zbekiston Respublikasidan	57452	28022	19270	21197	23741	41,3
2.	MDH mamlakatlariidan	12881	4626	1988	2189	2452	19,0
3.	Uzoq xorij davlatlaridan	34888	9534	5787	6368	7133	20,4
4.	JAMI	105221	42182	27045	29754	33326	31,7
Qashqadaryo viloyati hududiga tashrif buyurgan ziyyoratchilar:							
1.	O‘zbekiston Respublikasidan	1416	177	1065	1162	1289	91,0
2.	MDH mamlakatlariidan	224	47	10	12	14	6,3
3.	Uzoq xorij davlatlaridan	1021	0	76	85	95	9,3
4.	JAMI	2661	224	1151	1259	1398	52,5
5.	Tashrif buyuruvchi ziyyoratchilarning Qashqadaryo viloyatidagi	2,5	0,5	4,3	4,2	4,2	*

² Muallif ishlanmasi

	ulushi (%) da						
--	---------------	--	--	--	--	--	--

Bu ko'rsatkichlar yillar davomida o'zgarib borgan. Buning asosiy sababi 2020-2021-yillarda Koranavirus pandemiyasining salbiy ta'siri oqibatida keyingi yillarda ziyoratchilarning tashrifi viloyatda kamayib borgan.

Shuni qayd etishimiz lozimki, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ziyorat turizmi bo'yicha tashrif buyuruvchilar 2019-yilga nisbatan 31,7 foizga, shu jumladan, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 52,5 foizga kamaygan.

Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmini diversifikatsiya qilishni takomillashtirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim:

Xulosa va takliflar. Ziyorat turizmi bo'yicha Qashqadaryo viloyatining tuman (shahar)lari ham o'ziga xos xususiyat va yo'naliishlarga ega. Shu tufayli ilmiy tavsiyalarimizni birinchi galda, ushbu hududga mos tarzda ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bunda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun bir qancha mexanizmlardan foydalanish zarur:

- ziyorat turizmini eko-turizm va wellness (sog'lomlashtirish) yo'naliishlari bilan bog'lab sayyoohlar uchun muqobil xizmatlarni joriy etish;
- viloyatdagi hunarmandlar va tadbirkorlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqib, ziyorat maskanlarida milliy mahsulotlar savdosini tashkil etish;
- islomiy ta'limotning sof va an'anaviy qadriyatlarini targ'ib qilish, shuningdek, xalqaro miqyosdagi ilmiy tadqiqotchilar va sayyoohlarni jalb etish maqsadida "Abu Mu'in Nasafiy" ziyoratgohi negizida "Aqida maktabi" faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;
- har bir mintaqaning ziyorat maskanlari joylashgan hududiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning rivojlanish drayveri sifatida ahamiyatini belgilash hamda ziyorat turizmi xizmatlarini ushbu jarayon bilan uzviy uyg'unlashtirish. (masalan, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Amir Temur va Temuriylar sulolasiga oid muqaddas ziyorat maskanlari bu hududning turizm salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, Shahrisabzning tarixiy-madaniy yo'naliishdagi drayverlik roli inobatga olinib, bu yerdagи ziyorat turizmi xizmatlari madaniy meros bilan uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiq);
- Mintaqadagi har bir ziyorat maskanida (agar obyekt sifatida mavjud bo'lsa) ushbu ziyoratgohning tarixiy, diniy va madaniy ahamiyatini yorituvchi maxsus muzeylar tashkil etish;

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Жалолиддина X., Нурматова С. Туризм в Узбекистане после COVID-19. //Научно-электронный журнал "Экономические и инновационные технологии", 2021. - № 1 (январь-февраль). – С. 333-341;
2. Safarova N.N. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish: i.f.d.. dokt. dissertatsiya avtoref. – Tashkent, 2018;
3. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управления региональным туризмом: Автореф... докт. экон. наук. – Т., 2011. – 52 с.;
4. Эргашев Р., Узоков Ж. "Значение опыта зарубежных стран в развитии сферы паломнического туризма в регионе" // "Экономика и социум", научное электронное издание, Impact factor, ISSN: 2225-1545, №3(118) 2024, С. 889-897.
5. Ergashev R., Uzoqov J. "The importance of increasing the potential of pilgrimage tourism in the development of the economy of Kashkadarya region"// International Scientific Research Journal, Impact factor, ISSN: 2776-0979, Volume 5, Issue 4, April - 2024, 328-333.

6. Uzaqov J.N. “Mintaqa ziyorat turizmi salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi”. for participation in the scientific online conference “Problems and solutions of scientific and innovative research” with an article entitled. Volume 01, Issue 03, 2024. 45-53.
7. Jamshid Uzokov. “Government regulation and management of the development of pilgrimage tourism in uzbekistan.”// Journal of Management Value & Ethics, Gwalior management academy, ISSN: 2249-9512, Jan-March 24 Vol. 14 No. 01, Sjif 8.001 & Gif 0.626, 101-113. (08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Osiyo mamlakatlari nashrlari. №6)
8. Ergashev R.X, Uzoqov J.N. “Ziyorat turizmi tarmog‘ining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo‘llari”//, Scienceproblems.uz. ilmiy-amaliy elektron jurnal, ISSN: 2181-1342, №2024-5 son, 4-jild, B. 57-62.